

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

5 ЖИЛД, 1 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА
ТОМ 5, НОМЕР 1

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART
VOLUME 5, ISSUE 1



ТОШКЕНТ-2022

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА | INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

№1 (2022) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2022-1>

Бош мухаррир:

Холбеков Мухаммаджон
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Бош мухаррир ўринбосари:
Тўхтасинов Илҳом
ф.ф.д., доцент (Ўзбекистон)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ

Назаров Бахтиёр
академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умар ўғли
ф.ф.д., профессор (Турция)

Алмаз Улви Биннатова
ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

Бокиева Гуландом
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Миннүллин Ким
ф.ф.д., профессор (Татаристан)

Махмудов Низомиддин
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил
ф.ф.д., профессор (Россия)

Жўраев Маматқул
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахиммамед
к.ф.н. (Туркменистан)

Кристофер Жеймс Форт
Мичиган университети (АКШ)

Умархўжаев Мухтор
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Болтабаев Ҳамидулла
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Дўстмуҳаммедов Ҳуршид
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиневский А.С.
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Сиддикова Ирода
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Шиукашвили Тамар
ф.ф.д. (Грузия)

Юсупов Ойбек
масъуль котиб, доцент (Ўзбекистон)

Главный редактор:

Холбеков Мухаммаджон
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Заместитель главного редактора:
Тухтасинов Илҳом
к.ф.н., доцент (Ўзбекистан)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

Назаров Бахтиёр
академик. (Ўзбекистан)

Якуб Умар оғлы
д.ф.н., профессор (Турция)

Алмаз Улви Биннатова
д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Бакиева Гуландом
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Миннүллин Ким
д.ф.н., профессор (Татарстан)

Махмудов Низомиддин
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Керимов Исмаил
д.ф.н., профессор (Россия)

Джураев Маматқул
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Куренов Рахиммамед
к.ф.н. (Туркменистан)

Кристофер Джеймс Форт
Университет Мичигана (США)

Умархаджаев Мухтар
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Мирзаев Ибодулло
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Балтабаев Ҳамидулла
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Дўстмуҳаммедов Ҳуршид
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Лиходзиневский А.С.
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Сиддикова Ирода
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Шиукашвили Тамар
д.ф.н. (Грузия)

Юсупов Ойбек
отв. секретарь, доцент (Ўзбекистан)

Editor in Chief:

Kholbekov Muhammadjan

Doc.of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor

Tuhtasinov Ilhom

Ph.D. Ass. Prof. (Uzbekistan)

EDITORIAL BOARD

Bakhtiyor Nazarov
academician. (Uzbekistan)

Yakub Umarogli
Doc. of philol. scien., prof. (Turkey)

Almaz Ulvi Binnatova
Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)

Bakieva Gulandom
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Minnulin Kim
Doc. of philol. scien., prof. (Tatarstan)

Mahmudov Nizomiddin
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kerimov Ismail
Doc. of philol. scien., prof. (Russia)

Juraev Mamatkul
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kurenov Rakhammad
Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

Christopher James Fort
University of Michigan (USA)

Umarkhodjaev Mukhtar
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Mirzaev Ibodulla
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Boltaboev Hamidulla
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Dustmuhammedov Khurshid
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Lixodzievsky A.S.
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Siddiqova Iroda
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Shiukashvili Tamar
Doc. of philol. scien. (Georgia)

Yusupov Oybek
Ass. prof. (Uzbekistan) - Senior Secretary

Радиомакер | Вёрстка | Сахифаловчи: Ҳуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов: www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,

улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,

Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Акрамжон Махмудович Кўлдошев ВЕНГЕР ТИЛИ ШАКЛЛАНИШИНГ СОЦИОЛИНГВИСТИК ЖИҲАТЛАРИ.....	5
2. Sharipov Bobur Salimovich TIL BIRLIKALARINING NUTQDA FAOLLASHUVI HAQIDA.....	11
3. Xandamova Feruza Bahodir Qizi INGLIZ VA O'ZBEK TILIDA SO'ZLASHUV FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI.....	17
4. Уктамова Малика Хасановна ИСПАН ТИЛИНИНГ АРГЕНТИНА ВЕРСИЯСИДА СЎЗ ШАКЛЛАНИШИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ.....	25
5. Djurabayeva Makhigul Djurayevna, Babadanova Tatyana Baltabayevna "THE ICEBERG PRINCIPLE" IN THE OLD MAN AND THE SEA.....	29
6. Алишер Пармонов Абдулпаттаевич ХОЗИРГИ ЗАМОН ТИЛШУНОСЛИГИДА ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИК ИЗЛАНИШЛАРНИНГ ЎРНИ.....	34
7. Ахмедав Умиджон Усубович БАДИЙ АСАР НОМЛАНИШИДАГИ НОКУМУНИКАТЦИЯ ВА УНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ.....	38
8. Шохида Шодиева Инатовна THOUTS ON THE CONCEPT AND ITS ESSENCE.....	43
9. Mamadjanova Nargiza Mahmudjanovna THE STUDY OF LINGUISTIC UNITS REPRESENTING THE CATEGORY OF ADDRESS IN MODERN LINGUISTICS ON THE EXAMPLE OF ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES.....	49
10. Marjan Adil kizi Kambarova NATIONAL REALIAS IN ENGLISH, RUSSIAN, UZBEK AND KAZAKH PROVERBS.....	61
11. Абдуллаева Лола Тоҳировна ТАЛАБАЛАРНИНГ СОЦИОЛИНГВИСТИК КОМПЕТЕНЦИЯНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ЭЛЕКТРОН РЕСУРСДАН ФОЙДАЛАНИШ МЕТОДИКАСИ.....	66
12. Г.П. Каллибекова ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН ТАРМОҚ ГАЗЕТАЛАРИДА ХАБАР ЖАНРИ ВА УНИНГ АФФИСКЛАРНИ ФОЙДАЛАНИШДАГИ ЎЗИГА ХОСЛИГИ.....	75
13. Рахимова Моҳинабону Абдуҳамид қизи ЭССЕ МАТНЛАРИДА ҚЎЛЛАНИЛГАН ФРАЗЕОЛОГИЗМЛАРНИНГ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИК ТАҲЛИЛИ.....	82
14. Shakhribonu Sirojiddinova THE DIFFERENCES AND CALAMITIES OF INSTRUCTING LEGAL ENGLISH IN EFL CLASSES THROUGH CONTENT – BASED INSTRUCTION.....	87
15. Xujamkulova Maxbuba Bobonazarovna КОММУНИКАТИВ TIPLAR PRAGMATIK ASPEKTDA.....	93
16. Попов Дмитрий Владимирович СОЦИАЛЬНЫЕ И ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ДВУЯЗЫЧИЯ.....	98
17. Одинахон Қулмурадова РАҚАМЛИ ТЕЛЕВИДЕНИЕДА ДИАЛОГИК ЖАНРЛАР ИСТИҚБОЛЛАРИ.....	107

18. Козиева Икбол Комилжоновна ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ УЗБЕКСКОЙ АНТРОПОНИМИКИ И ЕЁ ОСНОВНЫЕ ПРОБЛЕМЫ.....	116
19. Умрзаков Исломжон Исройлович АМЕРИКА АДАБИЁТИДА “ЖАНУБ РЕНЕССАНСИ”	121
20. Ochilova Hilola Husanovna XITOY TILIDA FE'LLARNING SINTAKTIK XUSUSIYATIGA KO'RA TASNIFI.....	127
21. Каримов Шоҳжаҳон КОНВЕРСИЯ УСУЛ БИЛАН СИФАТЛАРДАН АНТРОПОНИМЛАР ЯСАЛИШИ ВА УЛАРНИНГ МОТИВАЦИОН-НОМИНАЦИОН ТАВСИФИ.....	132
22. Asadov To'lqin Hamroyevich O'ZBEK TILIDA SO'Z YASALISHI TADQIQI VA RIVOJI XUSUSIDA.....	139
23. Madieva Madina Yusupovna FEATURES OF BRAND NAMES AND LANGUAGE HYBRIDIZATION.....	147
24. Умида Мансуровна Рашидова БАДИЙ МАТНДА УСЛУБИЙ ХОСЛАНГАН ПОЛИСЕМАНТИК ФРАЗЕОЛОГИЗМЛАРНИНГ ФУНКЦИОНАЛ-СТИЛИСТИК ХУСУСИЯТЛАРИ.....	154
25. Andaniyazova Gavhar Ruziqulovna SHAROF BOSHBEKOV DRAMALARIDA IRONIYA VA SARKAZMNING QO'LLANISHI.....	160
26. G‘ayrat Murodov, Bahor Shukurova SHUKUR XOLMIRZAYEV HIKOYALARIDA DETALNING BADIIY - FUNKSIONAL O'RNI.....	165
27. Буранова Жамила Алиевна СВОЕОБРАЗИЕ РОМАНА ХАМИДА ИСМАЙЛОВА «МБОБО».....	171
28. Гавҳар Ринат қизи Назарова ЎЗБЕКИСТОНДА XX АСРНИНГ 50-80-ЙИЛЛАРИДА ҲУЖЖАТЛИ ФИЛЬМ РИВОЖЛАНИШИННИНГ АСОСИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ.....	179
29. Шахло Наравиева, Ҳулкар Ҳамроева ЎЗБЕК ТИЛИ ЎҚИТИШДА ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ УСУЛЛАРИ (Қозоғистондаги таълим ўзбек тилида юритиладиган мактаблар мисолида).....	185
30. Cho'lliyeva Gulchexra Toshpo'lot qizi INTONATSION BIRLIKLER: MELODIKA VA TEMBR.....	191
31. Шадиева Дилрабо Курбановна ВЗАИМОВЛИЯНИЕ РЕКЛАМЫ НА ИЗМЕНЕНИЕ НОРМ РУССКОГО ЯЗЫКА.....	197
32. Фармонов Бекзод Бегматович ОБ ИССЛЕДОВАНИИ РЕЛЬЕФОНИМОВ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ.....	202
33. Шахобиддин Шарофиддинович Шодиев ЖАДИД ИЖОДКОРЛАРИНИНГ МАЪРИФИЙ-АХЛОҚИЙ, ФАЛСАФИЙ, ЛИНГВИСТИК ҚАРАШЛАРИ.....	207



INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

ISSN: 2181-9297
www.tadqiqot.uz

Cho'lliyeva Gulchexra Toshpo'lot qizi
Buxoro davlat universiteti
O'zbek tilshunosligi kafedrasi
tayanch doktoranti

INTONATSION BIRLIKALAR: MELODIKA VA TEMBR



<https://doi.org/10.5281/zenodo.0000000>

ANNOTATSIYA

Nutq jonli va ko'p xususiyatlarga ega jarayondir. Unda turli birliklar uyg'unlashib nutqiy muloqotdan ko'zlangan maqsadni ifodalash vazifasini bajaradi. Bu jarayonda turli lisoniy verbal vositalar qatorida lisoniy noverbal vositalar ham birdek xizmat qiladi. Shunday vositalar qatorida nutq intonatsiyasi va uning tarkibiy qismlari sanalmish melodika, ritm, ton, temp, tembr kabilarning ham roli beqiyos. Intonatsiya va uning tarkibiy qismlari nutqning ajralmas bo'lagi bo'lib, ular diskursiv ma'noni yuzaga keltiruvchi, so'zlovchining nutq so'zlashdan maqsadini oydinlashtiruvchi, suhbat jarayonini unumli qiluvchi, shuningdek, badiiy asar qaharmonlarining o'ziga xos individual xususiyatlari haqida ma'lumot beruvchi vositalardan hisoblanadi.

Ushbu maqolada intonatsiyaning melodika hamda tembr kabi tarkibiy qismlari haqida so'z yuritilan bo'lib, ularning o'ziga xos xususiyatlari, ularning nutqiy muloqotda bajaradigan vazifalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: intonatsiya, ohang, nutq, nutqiy jarayon, temp, tembr, melodika, ton, talaffuz, me'yor, tovush, suhbatdosh, so'lovchi.

Чуллиева Гулчехра Тошполот кызы
Докторант кафедры узбекского языкоznания
Бухарского государственного университета

ИНТОНАЦИОННЫЕ ЕДИНИЦЫ: МЕЛОДИКА И ТЕМБР

АННОТАЦИЯ

Речь – живой и многогранный процесс. В нем разные единицы объединяются, чтобы выразить цель разговора. Наряду с различными языковыми вербальными средствами в этом процессе служат и языковые невербальные средства. Среди таких средств несравнена роль интонации речи и ее компонентов, таких как мелодия, ритм, тон, темп, тембр. Интонация и ее компоненты являются составной частью речи, они создают дискурсивный смысл, уточняют цель говорящего из речи, делают продуктивным процесс беседы, а также несут информацию об индивидуальных особенностях героев художественного произведения. средства передачи. В данной статье рассматриваются такие компоненты интонации, как мелодия и тембр, и анализируются их специфические особенности.

Ключевые слова: интонация, тон, речь, речевой процесс, темп, тембр, мелодия, тон, произношение, норма, звук, собеседник.

Chullieva Gulchehra Toshpo'lot kizy
Doctoral student of the
Department of Uzbek Linguistics
Bukhara State University

INTONATION UNITS: MELODIC AND TEMBR

ANNOTATION

Speech is a living and multifaceted process. In it, different units are combined to express the purpose of the conversation. Along with various linguistic verbal means, non-verbal linguistic means also serve in this process. Among such means, the role of intonation of speech and its components, such as melody, rhythm, tone, tempo, timbre, is incomparable. Intonation and its components are an integral part of speech, they create a discursive meaning, clarify the purpose of the speaker from the speech, make the process of conversation productive, and also carry information about the individual characteristics of the heroes of a work of art. means of transmission.

This article discusses such components of intonation as melody and timbre, and analyzes their specific features.

Keywords: intonation, tone, speech, speech process, tempo, timbre, melody, tone, pronunciation, norm, sound, interlocutor.

Intonatsiya o'zbek tilidagi nutqiy muloqotning eng muhim tarkibiy qismidir. Intonatsiya yordamida biz nutq ma'nolarini suhbatdoshga yetkazamiz. Buning isboti sifatida istalgan jumlanı olib, turlicha intonatsiyada talaffuz qilib ko'ring – suhbatdosh uni har safar turlicha qabul qilaveradi; muloqotning natijasi ham har safar o'zgaraveradi.

Intonatsiya jonli nutqning asosiy va majburiy elementlaridan biri hisoblanadi. Intonatsiyasiz jonli nutq yuzaga kelishi mumkin emas. Nutqning mazmunan boyligi va ifodaliligi lug'at boyligining turli tumanligi hamda til birliklarini o'rniда qo'llay olish qobiliyati bilangina emas, balki intonatsion moslashuvchanligi, ta'sirchanligi, shuningdek, jumla ohangining o'zgaruvchan va rang-barangligi bilan ham belgilanadi.

Prosodika (prosodiya) fonologiyaning supersegment vositalar xususida babs yurituvchi bo'limidir. Bunday vositalar doirasiga, odatda, urg'u, ton, chuziqlik, pauza, temp, tembr, ohang, bo'g'inning oldi va orqasidan ulanuvchi vositalar hamda segment fonemalarning ayrim belgilari (aspiratsiya, qayta aspiratsiya, singarmonizm, bo'g'izni qisish va shu kabilar) kiritiladi. Ular fonologiyada prosodik elementlar yoki prosodemalar deb ham yuritiladi.

Demak, til prosodikasi nutqning ohangi, ovoz balandligi, sur'ati, umumiyl tembri ko'rinishi kabi fonetik xususiyatlarning uyg'unligidir. Dastlab, «prosodiya» atamasi (yunoncha prosodia — urg'u, kuy) she'r va qo'shiqchilikda qo'llanilgan bo'lib, tovushlar zanjiriga qo'shilgan qandaydir ritmik va melodik sxemani bildirgan. Tilshunoslikda prosodiya tushunchasi she'r nazariyasida qabul qilingan tushunchaga o'xshaydi, ammo lingvistik prosodika segmentlarga (tovushlarga, fonemalarga) emas, balki nutqning ustsegmental (supersegmental) tarkibiy qismlariga tegishlidir.

Poetik prosodiya hamda lingvistik prosodiya bir-biridan ko'p xususiyatlari ko'ra farqlanadi. Bunday farqlarning yana biri shuki, birinchisi butun tilni tashkil etishning muhim elementi bo'lsa, ikkinchisi esa tilning she'riy ko'rinishidagina qo'llaniladigan maxsus vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Badiiy adabiyotda intonatsiya va uning tarkibiy qismlaridan biri sanalmish ohangning ahamiyati beqiyosligini she'riy vaznlarni tahlil qilgan olimlarning ilmiy izlanishlarida ham yaqqol ko'rish mumkin. Shular jumlasidan, Dilnavoz Yusupovaning "Aruz alifbosi" qo'llanmasidagi fikrlariga e'tibor qarataylik: Har bir millat adabiyotidagi she'riy vaznlar o'sha xalq tilining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi. Shu ma'noda o'zbek tilining ifoda va ohang imkoniyatlariga eng ko'p mos keluvchi she'riy tizim milliy vaznimiz hisoblangan barmoqdir... Aruz vazni esa tuya yurishining

ritmidan olingan degan rivoyatlar ham mavjud. Badaviylar tuya sahroda yurishni xohlamay, sarkashlik qilgan paytda uni tezlatish uchun maxsus qo'shiqlar kuylaganlar va bu qo'shiqlar ohangi aruz vaznining vujudga kelishi uchun asos bo'lgan degan qarashlar bor.

Yuqoridagi fikrlardan ko'rish mumkinki, she'r o'lchovi – vaznlarning paydo bo'lishida ham o'sha tilning milliy o'ziga xosliklari qatorida nutqining ohangi ham katta ahamiyatga ega.

Shunday qilib, fraza urg'usi, melodiya, ritm, pauza, temp, tembr kabi prosodik elementlarning birligidan iborat bo'lib, tilda har xil sintaktik, ekspressiv va emotsiyal ma'nolarni ifodalovchi murakkab hodisa intonatsiya deyiladi. Prosodik elementlarning har biri intonatsiyaning komponenti yoki parametri deb yuritiladi. Melodiya va fraza urg'usi intonatsiyaning birlamchi, qolgan elementlar — ikkilamchi komponentlari hisoblanadi.

Maqolamizda intonatsiyaning melodika va tembr kabi birliklari haqida so'z yuritamiz.

MELODIKA (yun. melodikos — ohangdor) — so'zi hayotimizda atama sifatida quyidagi ikki ma'noni bildiradi:

1) kuy (melodiya) haqidagi ta'limot, dastlab Yunonistonda Aristoksen asoslab bergen. O'rta asrlarda kuylarning tuzilishi va badiiy jihatlari haqida Sharqda Forobiy, Safiuddinal-Urmaviy, Jomiy, Yevropada Avgustin, Gvido d'Aretss, Sarlinolar fikr yuritib, melodika ilmini o'ziga xos ravishda davom ettirishgan.

J. F. Ramo gomofoniya uslubidagi kuylarning garmoniyata bog'liqligini

ta'kidlab, melodika masalalarini ko'proq kompozitsiya va garmoniya nuqtayi nazaridan o'rganishga asos solgan. 19—20-asrlarda A. Marks, X. Rimani, E. Kurt, B. Asafev, L. Mazel, M. Aranovskiy, B. Sabolchi kabilar zamonaviy melodika ta'limotining rivojiga katta hissa qo'shgan;

2) muayyan musiqa asari, kompozitor ijodi yoki musiqa uslubiga xos kuy xususiyatlari (masalan, o'zbek xalq, qo'shiqlarining melodikasi, Betxoven melodikasi va h.k.).

Nutq melodikasida esa nutqda ishtirok etgan gaplardagi ovozning ko'tarilishi va pasayishi nazarda tutiladi. Bu jarayon gap tarkibidagi so'zlarning bo'g'inlarida qo'llangan unli tovushlarning baland yoki past talaffuz etilishiga asoslanadi. Tabiiyki, gapdagi barcha so'zlarning bo'g'inlari bir xil balandlikda talaffuz etilmaydi, ular gapning mazmun planiga (fikr, his-tuyg'u va hokazolarga) qarab o'zgarib boradi. Shuning uchun ham darak, so'roq va buyruq gaplarning yoxud emotsiyal va emotsiyal bo'lmagan gaplarning intonatsiyalari bir xil emas.

Melodika (ohang) va, ayniqsa, intonatsiyaning ikkinchi muhim komponenti - ovoz balandligi (intensivlik) jumlaning ba'zi qismlarini ta'kidlash uchun ishlatiladigan gapning frazaviy urg'usi hisoblanadi. Bu elementlarning neytral xususiyatga ega bo'lgan ko'rinishlaridan biri sintagmatik urg'u deyiladi hamda gap sintagmalarining chegarasini belgilab berish vositasi sifatida qaraladi. Bunda sintagma deganda nutqda semantik bog'lanish orqali birlashgan nisbatan kichik so'z guruhlari tushuniladi.

Gap sintagmalari ohangining odatdagagi me'yordan ajralib turuvchi, alohida ovoz balandligi bilan talaffuz qilinuvchi bir turi mantiqiy urg'u hisoblanib, u tinglovching e'tiborini jaib qilish uchun nutqda eng muhim bo'lgan so'zni intonatsion vositalardan foydalangan holda ta'kidlash vazifasini bajaradi. Ko'pincha, u kommunikativ jihatdan asosiy ma'no beruvchi hamda ifodalanuvchi jumlaning maqsadini ochib beruvchi bo'g'in yoki so'zni ta'kidlab, ajratib keladi va har doim ma'ruzachi istagan o'rinda joylashadi. Mantiqiy urg'u iboraning qaysi so'ziga to'g'ri kelishiga qarab, gap o'z ma'nosini o'zgartiradi va suhbatdoshning boshqacha munosabatini talab qiladi. Masalan:

- Siz teatrga borasizmi? – Ha, teatrga. (Mantiqiy urg'u teatrga so'ziga tegishli, demak, shu so'z baland, ajratuvchi ohangda aytildi.)

- Siz teatrga borasizmi? – Qani, ketdik. (Mantiqiy urg'u borasizmi? so'ziga tegishli, demak, shu so'z baland, ajratuvchi ohangda aytildi.)

- Siz teatrga borasizmi? — Ha, biz. (Mantiqiy urg'u Siz so'ziga tegishli, demak, shu so'z baland, ajratuvchi ohangda aytildi.)

Yoki: "Menga uning yangi kitobi birinchisidan ko'ra ko'proq yoqdi" jumlasida kitob so'zi birinchi sintagmaning oxirida bo'lsa-da, biz uni emas, balki boshqa so'zni – "yangi"ni ta'kidlaymiz va shu bilan bu yerda ifodalangan qarama-qarshilikni yanada qabartirib ko'rsatamiz: yangi – birinchi.

Melodika atamasiga ba'zan tor ma'noda – so'z birikmali va gaplar doirasida kuzatiluvchi ohang sifatida qaraladi. Intonatsiyaning bu elementi gap va unga tegishli qismlarning umumiy chizig'ini yaratadi hamda shu bilan nutqni bog'laydi va ajratadi.

Tilda ohang (melodika)ning asosiy deb hisoblanuvchi bir necha turlari mavjud bo'lib, ular quyidagilar hisoblanadi:

- tugash ohangi – gap oxirida kelib ovoz balandligining pasayib borishi bilan ifodalanadigan va darak, shuningdek, so'roq olmoshi ishtirok etgan so'roq gaplarga xos bo'lган ohang; u fikrning tugashini ko'rsatadi yoki uning muhim qismini ta'kidlab ifodalashga xizmat qiladi;

- so'roq ohanggi – ohangning kuchayishi bilan ajralib turadigan va so'roq olmoshisiz so'roq gaplarga xos bo'lган ohangni ifodalashga yordam beradi;

- tugallanmagan ohang – so'roq ohangiga yaqin, ammo ovozning pastroq ko'tarilishi bilan ajralib turadigan va gapning yakunlanmay qolgan qismlarini ifodalaydigan, kelajakda davomiylik tuyg'usini yaratadigan to'liqsizlik ohangi.

Tarkibida so'roq so'zi bilan hosil qilingan so'roq gaplarda jumлага so'roq ma'nosini yuklayotgan so'zga aynan javob bo'ladi dan so'z talab qilinadi. (M: Bugun kim kelmadi? – Karim.) Shuningdek, bunday so'roq gaplarda so'roq so'z va suhbatdoshning javobidagi so'roq so'zga aynan javob bo'lувчи bo'lak ohangi o'xshaydi, bir xil ifodalanadi. Yoki so'roq mazmuni maxsus so'zdan bilinib turganligi sababli so'roq ohangiga bo'lган intonatsion ehtiyoj yo'qoladi. So'roq gap gap bo'laklarining o'zgargan tartibi (Keldi u?) orqali berilgan o'rinda ham so'roq intonatsiyasi shart emas. Lekin intonatsiyadan boshqa hech narsa bilan farq qilmaydigan so'roq so'zsiz gaplarda so'roq ohangi mutlaq majburiydir. (M: U keldi?).

Demak, ovozning turli balandlikdagi tovushlar ostida yuqoriga va pastga harakatlanishi nutq melodikasi deb ataladi. Masalan, Tamommi? gapida biz [o] tovushida ovozning ko'tarilishini eshitamiz. Javob: Ha, tamom. Biz [o] tovushida ovozning pasayishini qayd etamiz.

Tovushning balandligi vaqt birligi ichidagi (masalan, 1 sekundda) tebranish miqdoriga bog'liq bo'ladi. Tebranish qancha ko'p bo'lsa tovush shuncha baland, kam bo'lsa past chiqadi. Tebranayotgan jismning, masalan – un psychalarining tinch holatdagi nuqtadan ikki qarama-qarshi tomonga bir marta borib kelishi bitta to'la tebranish hisoblanadi va bu bir gers deyiladi. Insonning eshitish qobiliyati 16 gersdan (infratovush) 2000 gersga (ultratovush). Insonning eng past tovushi bas (40 gers), eng baland tovushi esa soprano (170 gers) deyiladi. Tovushning baland-pastligi melodikani, melodika esa gapning ifoda maqsadiga yoki emosionallikka ko'ra turlarini yuzaga keltiradi.

Nutqiy jarayonda melodik ko'rinishlarning rang-barangligini ko'rishimiz mumkin. Fikrning tugashi va bir vaqtning o'zida jumlaning ham tugallanishi ovozni pasaytirishni talab qiladi (pastga tushadigan ko'rinish). Nutqning davomiyligi va o'sib borishi bilan birga fikrning rivojlanishi ovozning ko'tarilishini (ko'tarilgan ko'rinish) talab qiladi. Yuqorida aytgan har ikkala holatda ham nutqning boshida o'suvchi ohang bo'lib, jumlaning asosiy nuqtasidan keyin nutq maqsadiga bog'liq ravishda ohang o'zgarishi kuzatiladi. Ya'ni tugallangan gapda ohang pasayadi, yakuniga yetmagan, rivojlanib borayotgan jumlada ohang ko'tariladi. Jonli nutqda bir jumlaning monoton ohangini ham kuzatish mumkin.

Quyidagilarga e'tibor qarating:

Siz ketasizmi? (ohangning ko'tarilgan ko'rinishi).

Men boraman. (Ohangning tushayotgan ko'rinishi).

Shuni doimiy yodingizda saqlangki,... (hissiy ta'sir ko'rsatish, monoton ohang).

Siz yana uxbab qolasiz. (ohang ko'rinishlarining to'liq shakli: jumla boshida ko'tariluvchi (Siz), o'rtasida avj nuqtasi (yana), oxirida past ovoz (uxbab qolasiz)).

Shunday qilib melodikani quyidagicha turlarini ko'rsatish mumkin: so'roq, aniqlashtiruvchi, sanash, ogohlantiruvchi, bog'lovchi, qarshilantiruvchi, ajratuvchi, boshlanuvchi, tugallanmaganlik va v.b.

Badiiy asarni o'qiyotganda ohang nutqni yuzaga keltirishning yorqin ifodalaridan biri hisoblanadi: u tinglovchiga ta'sir qiladi, asarni idrok etishni osonlashtiradi, uning hissiy tomonini ochib beradi. Qo'zg'aluvchan nutq ohangning dadil ko'tarilishlari (tushishlari) bilan tavsiflanadi.

Nutqning melodikasi (ohangi) biz o‘rganganimizdan ham ko‘ra boyroq va xilma-xil. Undov, so‘roq, nuqtalar, vergul kabi tinish belgilari – bularning barchasi nafaqat to‘xtamni, balki gapning melodik qoliplarini ham ko‘rsatadi. Ushbu qoliplarni nutqning melodik shakllari deb ham atashimiz mumkin.

Nutq tembri (fr. timbre – qo‘ng‘iroq) – bu inson ovozining psixoakustik xususiyati bo‘lib, past yoki baland bo‘lishi mumkin bo‘lgan bo‘yoqdorlikka ega intonatsiyaning tarkibiy qismlaridan biridir. Tembr to‘g‘ridan to‘g‘ri nutq apparativning strukturaviy xususiyatlariga bog‘liq bo‘lib, traxeyaning hajmi va shakli, vokal kordlarining yopilish zichligi uning qandayligini belgilashda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Bu xususiyatlarning har bir shaxs uchun individual va o‘ziga xosligi ovoz tembrining ham barchada har xil bo‘lishiga olib keladi.

Ovoz tembri sintetik ravishda ovozning o‘ziga xos bo‘yoqdorligi sifatida qabul qilinadi, hatto bu tovushlarning balandligi, davomiyligi bir xil bo‘lsa ham odamlarni (ularni ko‘rmasdan) ovozlari bilan farqlash imkonini beradi. Ovoz tembri katta kommunikativ ahamiyatga ega. Masalan, agar so‘zlovchi yoqimli, chiroyli ovoz tembriga ega bo‘lsa, suhbatdosh yoki tinglovchilar bilan aloqa o‘rnatish ancha oson bo‘ladi.

Nutq tovushlarining tembri, asosan, unli tovushlarga xos sifatiy belgidir. Asosiy ton tovush paychalarining tebranishidan yuzaga kelsa, obertonlarning yuzaga kelishida og‘iz bo‘shlig‘i, burun bo‘shlig‘i asosiy rezonatorlik vazifasini bajaradi. Ular yordamida aks sadolanish, ohangdorlik yuzaga keladi. Unli tovushlar bir-biridan tembriga ko‘ra farqlanadi.

Ba‘zan nutqda so‘zlovchi tomonidan ma’lum bir tovush(lar)ni cho‘zish orqali turli ma’nolarni yuzaga keltirishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shunga ko‘ra ayrim olimlar tovush cho‘ziqligini ikki turga bo‘lishadi: 1) ma’no ajratish uchun xizmat qiladigan cho‘ziqlik; 2) ma’no ajratish uchun xizmat qilmaydigan cho‘ziqlik;

O‘zbek tilida ma’no ajratish uchun xizmat qiladigan cho‘ziqlik deyarli yo‘q. Bu boshqa turkiy tillarda uchraydi. Masalan, turkman tilida tovushning cho‘ziqligi ma’noni farqlashga xizmat qiladi: a:t (nom, ism) va at (yilqi), a:ch (qorni och) va ach (eshikni och), ba:r (menda bor) va bar (ishga bor) kabi.

Ma’noni ajratish uchun xizmat qilmaydigan cho‘ziqlik o‘zbek tilida uchraydi. Masalan, imoniyomon, imom-iymom, Navoi-Navoiy kabi. Bunda [i] tovushini cho‘ziq talaffuz qilish natijasida yundoshi orttiriladi.

Nutqda turli uslubiy maqsadlarga ko‘ra unlilarning cho‘zib aytishini, shuningdek, ayrim o‘rinlarda sonor tovushlarning cho‘zib talaffuz qilinishini kuzatishimiz mumkin: Masalan, 1.... Nazir ota, oyoqning chigilini bi-ir yozmaysizmi? (M. Muhammaddo’s) 2. Bu uzu-un ham baland imoratni uzoqdan ko‘rganimdayoq ich-etimdan xo‘rlikmi, nimadir bosib kelaveradi, kelaveradi.

3. ... bo:rey ishingni qil; ji:m ,jim bo‘l; nim:a, bormaysanmi? kabi.

Ovoz tembri o‘z-o‘zidan (ixtiyoriy) va ijodiy (maxsus shakllangan) bo‘lishi mumkin. O‘z-o‘zidan paydo bo‘ladigan tembr, ayniqsa, ma‘ruzachi hayajonlanganda yoki eshitish nazorati qiyin bo‘lsa, yetkazilmagan ovozlarga xosdir. O‘z-o‘zidan paydo bo‘ladigan tembriga asoslanib, ma‘ruzachining jismoniy va hissiy-psixologik holatini aniqlash mumkin. Ijodiy tembr professional tarzda yetkazilgan ovozlarga xos. U ovozda faqat ushbu nutq vazifasi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan his-tuyg‘ularni va ranglarni ifodalash uchun ishlab chiqilgan.

Inson o‘z ovozining tembrini beixtiyor ham, maqsadli ravishda ham keng diapazonda o‘zgartirishga qodir. Biroq, shu bilan birga, u yoki bu darajada, tembr individual o‘ziga xoslik xususiyatlarini saqlab qoladi.

Shunday qilib, intonatsiyaning ikkala tarkibiy qismi ham nutqiy muloqotdan so‘zlovchining ko‘zlagan maqsadini oydinlashtirib, suhbat jarayonini kommunikantlarga tushunarli qilishga, asosiy axborotdan tashqari suhbatdoshning emotsiyonal holatini yetkazishga xizmat qiladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Abduazizov A. A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. (Darslik). – T.: Sharq. – 2010. 176 b.
2. Asqarova M. va b. O‘zbek tili praktikumi. – T.: Iqtisod- moliya – 2006. 304 b.

3. Жамолхонов Ҳ. Ўзбек тилининг назарий фонетикаси. (“Ўзбек тили” дан укув кулланма). – Т.: Фан – 2009. 224 б.
4. Yuldasheva D. N. BASIC NON-VERBAL COMPONENTS OF SPEECH //CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES (2767-3758). – 2022. – Т. 3. – №. 01. – С. 17-24.
5. Yusupova D. Aruz alifbosi. (O'quv qo'llanma.) – Т.: Akademnashr – 2015. 135 б.
6. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Т харфи. – Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти. www.ziyouz.com кутубхонаси.
7. qizi Cholliyeva G. T. Intonology-an Independent Field of Linguistics //International Journal on Integrated Education. – 2012. – Т. 4. – №. 10. – С. 209-213.